

# "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatida "Uralxim" AJ delegatsiyasi bilan uchrashuv bo'lib o'tdi

// 10.12.2021

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uralxim>



"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatida mamlakatimizda kimyo sanoatini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan tadbirlarida ishtirok etish maqsadida tashrif buyurgan "Uralxim" AJ direktorlar Kengashi a'zosi va bosh direktori Dmitriy Mazepin boshchiligidagi delegatsiyasi a'zolari ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi.

"Uralxim" AJ direktorlar Kengashi a'zosi va bosh direktori D.Mazepin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimizda so'nggi besh yilda olib borilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni rivojlantirish, davlat ishtirokidagi korxonalar transformatsiyasini amalga oshirish, davlat-xususiy sheriklik loyihalari va xususiylashtirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni alohida ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, kompaniya tomonidan O'zbekistonda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari natijasida mamlakatimiz kimyo sanoatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan o'z tajribalarini joriy etish hamda hamkorlikda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni eksport qilib, yangi jahon bozorlarini egallashga qaratilgan rejalarni amalga oshirish haqida ham to'xtalib o'tdi.

Uchrashuvda o'zaro manfaatli hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi, jumladan, Toshkent viloyatida yangi fosforli va murakkab o'g'itlar ishlab chiqarishni tashkil etish, "Navoiyazot" AJ negizida tashkil etilayotgan kimyoviy klasterda kichik hajmli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, "Dehqonobod kaliy zavodi" AJda tog'-kon ishlarining samaradorligini oshirish masalalari ko'rib chiqildi

hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo`yicha kelishuvga erishildi. Ushbu kelishuv asosida "Yo`l xaritasi" imzolandi.

Kecha 9-dekabr kuni O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Uralxim" AJ direktorlar Kengashi a`zosi va bosh direktori Dmitriy Mazepinni [qabul qilgan edi](#).

**"O`zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati**